



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 14 (1613), 2026-yil 22-yanvar, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV AMALIY TASHRIF BILAN SYURIX SHAHRIGA KELDI

Syurix xalqaro aeroportida Prezidentimizni Birlashgan savdo-sanoat palatasi rahbari Dorit Probst kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 22-yanvar kuni Davos shahrida mamlakatimiz yetakchisi AQSH Prezidenti Donald Tramp tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Tinchlik kengashi

Nizomini imzolash marosimida ishtirok etishi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

YURTIMIZ TARAQQIYOTI UCHUN MUHIM VOQEA

“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINING TAKOMILLASHTIRILISHIGA OID HAR BIR TAKLIF E‘TIBORSIZ QOLMAYDI

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilishi yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligida muhim ahamiyat kasb etar ekan, ayniqsa, ta’lim tizimiga katta qiziqish bildiriladi. Chunonchi, ta’lim-tarbiya masalasi muayyan soha egalarinigina emas, butun bir xalqning e’tiborida. Buni takomillashtirilayotgan strategiya loyihasi muhokamasida keng jamoatchilikning faol ishtirok etayotganidan ham anglash mumkin.



Islohot odimlari

O‘ZBEKISTON 2030

Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari Azizbek Turdiyevning ta’kidlashicha, loyiha muhokamasida hamyurtlarimiz faol ishtirok etyapti. Quvonarlisi, o‘qituvchilarning oylik maoshini oshirish ularning toifasiga ko‘ra belgilanishi kerakligi, oddiy mutaxassis bilan oliy

toifali o‘qituvchi maoshi orasidagi farq ortishi barcha o‘qituvchilarni o‘z ustida tinimsiz ishlashga undashi kabi e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan takliflar bildirilyapti.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON – ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YARATUVCHI VA EKSPORT QILUVCHI DAVLATGA AYLANADI

Raqamli iqtisodiyot

Hozirgi zamonaviy dunyoda yangi — virtual olam shakllanyapti. Barcha davlatlar bu olamda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun bor g‘ayrat-shijoatini ishga solmoqda. Chunki “raqamli iqtisodiyot”, “elektron hukumat” kabi tushunchalar bugun mamlakatning qay darajada taraqqiy etganini bildiradi.

Ayniqsa, keyingi yillarda sun’iy intellektning keng ommalashishi bu jarayonni, raqobatni yanada kuchaytirdi. Chunki xalqaro tashkilotlar ushbu yo‘nalishni kelajak sohasi sifatida e’tirof etmoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi tadqiqotlariga ko‘ra, yaqin yillarda sun’iy intellekt bozorining o‘lishi 4,8 trillion dollarga teng bo‘ladi. Bu Germaniya iqtisodiyoti bilan teng ko‘rsatkich. 2023-yilda sun’iy intellekt global texnologiya bozorining 7 foizini tashkil etayotgan bo‘lsa, 2033-yilga borib, bu ko‘rsatkich 29 foizga yetadi.

Davlatimiz rahbariga 20-yanvar kuni taqdimot qilingan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalar muhokamasidan shunday



xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekiston ham bu maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun aniq reja va strategiyalar asosida tizimli yangi tashabbus va loyihalarni hayotga tatbiq etmoqda. Sababi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga

— sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi”.

Raqamli O‘zbekistonni barpo etish borasida “Raqamli O‘zbekiston — 2030”,

“O‘zbekiston — 2030”, “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish” strategiyalarida belgilangan vazifalar ijrosi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davomi 3-betda

FIFA prezidenti Janni Infantino: “O‘ZBEKISTON MILLAT SIFATIDA HAM, HAMKOR SIFATIDA HAM ISHONCH VA E‘TIROFGA LOYIQ DAVLAT”

FIFA prezidenti Janni Infantino o‘zbek futbolining rivojlanishi va o‘zbekistonlik sportchilarning so‘nggi yillardagi yutuqlari haqida fikr bildirib, videomurojaatnoma yo‘lladi.



— 2016-yilda FIFA prezidenti lavozimiga kirishganimdan buyon O‘zbekistonga bir necha bor tashrif buyurishga to‘g‘ri keldi, — dedi FIFA rahbari videomurojaatnomasida. — Har bir tashrif mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari va ichkil modernizatsiya yo‘lidan borayotganini tasdiqlaydi.

Turli sohalarining ichkil rivojlanishi futbol sohasida sezilarli taraqqiyot bilan birga kechdi. O‘zbekiston 1994-yilda FIFAga a‘zo bo‘lganidan buyon mamlakat futbol tizimi strategik rejalashtirish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va futbol ta’limini rivojlantirish orqali sezilarli darajada mustahkamlandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda o‘z lavozimiga kirishganidan so‘ng sport va futbolni rivojlantirishga aniq yo‘nalish berdi. Futbol bo‘yicha milliy terma jamoaning 2024-yilgi yozgi Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etishi o‘zbek yoshlarining salohiyatini xalqaro maydonda namoyish etishida muhim ahamiyat kasb etdi.

FIFA turnirlarining O‘zbekistonda o‘tkazilishi futbolning global miqyosda kengayishi va uning xalqaro e‘tirofini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda o‘tkazilgan futbol bo‘yicha jahon chempionati tarixiy voqea bo‘lib, mamlakat Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib FIFA turniriga mezbonlik qildi.

Men 2025-yil sentabr oyida tashrif buyurgan Olimpiya shaharchasi O‘zbekiston FIFAning yangi turnirlarini o‘tkazish uchun munosib nomzod sifatida ishonch bilan o‘zini ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Buni

O‘zbekiston Ozarbayjon bilan birgalikda 2027-yilda bo‘lib o‘tadigan U-20 jahon chempionatiga mezbonlik qilishi ham tasdiqlaydi. Mazkur jahon chempionati ikki konfederatsiya tomonidan o‘tkaziladigan ilk turnirdir.

Samarqand viloyatini rivojlantirish bo‘yicha katta rejalar, jumladan, Katta-qo‘rg‘onda futbol akademiyasini tashkil etish futbol bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va FIFAning har bir iste’dodga o‘zini ko‘rsatish fursatini berish missiyasiga mos keladi.

Men FIFA O‘zbekiston hukumati va futbol assotsiatsiyasini o‘z magsadlarini amalga oshirishi uchun qo‘llab-quvvatlay olganimdan faxrlanaman. O‘rtamizdagi hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib, rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanishim men uchun katta sharaf.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqida O‘zbekiston xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga intilayotganini ta’kidladi. Bu FIFA to‘liq qo‘llab-quvvatlaydigan falsafa bo‘lib, O‘zbekiston biz uchun futbolni rivojlantirishda ishonchli va strategik hamkor ekanini tasdiqlaydi.

Biz O‘zbekiston bilan birgalikda millionlar o‘yini bo‘lgan futbolni rivojlantirishda davom etamiz. Chunki O‘zbekiston millat sifatida ham, hamkor sifatida ham ishonch va e’tirofga loyiq davlat.

“Dunyo” AA

Jeneva

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVNI TA’MINLASHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHDA MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS YARATILDI



Keyingi paytlardagi huquqiy islohotlar, ayniqsa, sud tizimini demokratlashtirish, uning faoliyati samaradorligini tubdan oshirishga qaratilgan o‘zgarishlar shiddatli tarzda amalga oshirilyapti. Tizimda fundamental yangiliklarni vujudga keltiradigan qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, ijrosi yuzasidan qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Davomi 2-betda

MAHSULOT YETISHTIRISH VA SOTISH GEOGRAFIYASI KENGAYDI

Bir mahalladagi 800 dan ziyod xonadonda limon ekilgan



Suv va hayot

XXI asrga kelib, suv resurslari bilan bog‘liq masalalar global ekologik xavfsizlik, oziq-ovqat barqarorligi va iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan tutashib ketdi. Iqlim o‘zgarishi, aholi soni tez o‘shishi, yer resurslari cheklangani va tabiiy ekotizimlarga tushayotgan bosim suvdan foydalanish masalasini faqat texnik yo‘nalish doirasida ko‘rib chiqish yetarli bo‘lmagan murakkab jarayonga aylantirdi. Bugun suv xo‘jaligi nafaqat infratuzilma va boshqaruv tizimi, balki ekologik barqarorlik, innovatsion rivojlanish hamda ilmiy yondashuvni talab etadigan strategik soha sifatida namoyon bo‘lmoqda.

IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI

OLIMLAR VA ISHBILARMONLAR HAMKORLIGIDA YECHIM TOPMOQDA

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar global miqyosda olinadigan chuchuk suv resurslarining qariyb yetimish foizi qishloq xo‘jaligi uchun sarflanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich irrigatsiya tizimlari samaradorligi past hududlarda yanada yuqori bo‘lib, suv yo‘qotishlari, sho‘rlanish, yer degradatsiyasi kabi ekologik muammolarni keskinlashtiryapti. Jahon miqyosida suv resurslarini boshqarish bo‘yicha tayyorlangan tahlilii hisobotlarda 2030-yilga borib, aholining sezilarli

qismi suv tanqisligi yuqori bo‘lgan hududlarda yashashi prognoz qilinmoqda. Bu holat esa, o‘z navbatida, suv xo‘jaligidagi yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish, ilmiy asoslangan va innovatsion yechimlarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Davomi 5-betda

Raqamli iqtisodiyot

O‘ZBEKISTON — ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YARATUVCHI VA EKSPORT QILUVCHI DAVLATGA AYLANADI

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ushbu dasturlarning hayotga tatbiq etilishi bo‘yicha yuqori natijalarga erishilayotganini qayd etdi. Jumladan, 2025-yil AT, fintex, sun‘iy intellekt kabi yo‘nalishlardagi mahalliy startaplarga xorijdan 270 million dollar investitsiya jalb etilgani, AT xizmatlari eksporti ilk bor 1 milliard dollarni tashkil etgani aytiladi.

Bu yo‘lda qator rivojlangan davlatlar bilan amaliy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, sohani zamon talablariga mos barqaror rivojlantirish uchun Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz o‘tgan yili dekabrda Yaponiyada bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammitida “Markaziy Osiyo — Yaponiya” raqamli xabi — raqamli yechimlar, sun‘iy intellekt, “buyumlar interneti”, kibexavfsizlik va innovatsion iqtisodiyot sohaslarida ko‘p tomonlama hamkorlik platformasini yaratish taklifini ilgari surdi.

Qisqasi, O‘zbekistonda raqamlashtirish hamda tarmoqlarga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish borasida misli ko‘rilmagan ishlar qilinmoqda. Asosiysi, bu ijtimoiy hayot, xalqimizning turmush tarzida namoyon bo‘lmoqda. Sohadagi islohotlar bilan O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi yirik sun‘iy intellekt xabiga aylanish yo‘lidan bormoqda.

Raqamli dunyoda faollik

Bolaligida “Alisa g‘aroyibotlar mamlakatida” asarini o‘qimagani yoki uning asosida ishlangan multfilmi tomosha qilmagan yurtdoshimiz bo‘lmasa kerak. Unda Alisa ismli qizcha quyon iniga kiranam deb boshqa olamga o‘tib qoladi va turli sarguzashtlarni boshdan kechiradi.

Parallel olamlar haqidagi bunday asarlar, kino san‘ati mahsulotlari doim xaridorgir.



Umuman, parallel olam mavjudmi yoki yo‘qmi degan savol oldida insoniyat ikkiga bo‘linadi. Bunga ishonadiganlar ham, uni inkor etadiganlar ham istagancha topiladi. Ayrimlar bu haqda tortishib, muhokama qilib yurgan bir davrda, boshqalar yangi borliqni kashf qilib bo‘ldi. Bu virtual olam, raqamli dunyodir.

Shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamonaviy texnologiyalar tufayli bugun raqamlashtirish sohasi qamrovi g‘oyat kengaydi. Hatto uni odamlar yangi borliq deb nomlay boshladi. Insonlar hayotiga shu qadar kirib borganidan usiz kundalik turmushimizni tasavvur qilolmaydigan bo‘ldik.

Birgina misol: qadimda bir insonga baho berishda asosiy mezon uning tashqi ko‘rinishi bo‘lgan. Keyinchalik bunday mezonlar sekin-asta ko‘payib bordi. O‘qimishlilik, axloqlilik, e‘tiqodlilik kabi sifatlar qo‘shildi. Shunga ko‘ra, odamlar yaxshi kiyinishga harakat qiladi, o‘qiyladi, izlanadi.

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida esa, insonlarga baho berishda yana bir yangi mezon paydo bo‘lmoqda. Bu kishilarning raqamli dunyoda qanchalik faolligidir. Ya‘ni ijtimoiy tarmoqlarda profilarni mavjudligi, blogi, elektron pochta va boshqa nisbatlardir. Shu bois, bugun hamma o‘z sahifasiga chiroyli surat joylash, dono fikrlarni yozishga urindi. Chunki kimdir haqida ilk taassurotga ega bo‘lish uchun odamlar, birinchi navbatda, uning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasini ko‘radi.

Nafaqat insonlarni baholash, balki davlatlarning taraqqiy etish darajasini bilish uchun ham undagi sohalarning qanchalik raqamlashtirilgani, sun‘iy intellekt dasturiy ta‘minotini joriy etishga tayyor yoki tayyor emasligiga e‘tibor qaratilmoqda. Bu mezon bo‘yicha xalqaro tashkilotlar turli tahlillarni o‘tkazmoqda. BMTning qator tashkilotlari, Jahon banki, Jahon raqobatbardoshlik markazi shular jumlasidan. Shu tariqa mamlakatimizda ushbu sohada amalga oshirilayotgan tashabbus va loyihalar samarasi xalqaro reytinglarda ham o‘z aksini topmoqda.

Jumladan, internet tezligini baholash bo‘yicha nufuzli reytinglardan biri — “Speedtest Global Index”ga ko‘ra, O‘zbekiston 2025-yil iyunda 71-o‘rinni egallagan.

Sun‘iy intellektga tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro indeksda 17 pog‘ona yuqoriladi, ya‘ni dunyoda 70-o‘rin, Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni qayd etdi. Bundan tashqari, mamlakatimiz sun‘iy intellektni rivojlantirish strategiyasiga ega kam sonli rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kiradi. Bu borada dadil odimlayotgani bilan ham ajralib turibdi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasida raqamlashtirishning aniq maqsadli ko‘rsatkichlari va “yo‘l xaritasi” belgilangan. Hujjatda O‘zbekistonning 2030-yilga qadar sun‘iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlari va ko‘rsatiladigan xizmatlari qiymatini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish hamda sun‘iy intellektga tayyorlik indeksida yetakchi davlatlarning 50 taligi ro‘yxatiga kirishiga erishish kabi maqsadlar qo‘yilgan.

Albatta, bunga o‘z-o‘zidan erishilmaydi. Buning uchun mamlakatda kerakli infratuzilma yaratilishi zarur. Jumladan, sun‘iy intellektning



keng qamrovli rivojlanishi sohalar qanchalik raqamlashtirilganiga bog‘liq. Bu jarayonlar bir-birini to‘ldiradi va uzviy ravishda taraqqiy etib boradi.

Masalan, O‘zbekistonda davlat xizmatlarini elektron tartibda ko‘rsatish bo‘yicha jadal islohotlar olib borilmoqda. Natijada Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi xizmatlar va servislari soni 800 ga yaqinlashdi. Sog‘liqni saqlash, ichki ishlar, oliy ta‘lim, sud tizimi — barchasida raqamlashtirish jarayoni shiddat bilan davom etyapti.

Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida insoniyat hayotining deyarli barcha sohasi internet maydoniga ko‘chmoqda. Ilgarigidek qog‘oz hujjatlar, navbatlar va hisob-kitoblarni o‘rinni endi elektron tizimlar, raqamli xizmatlar va mobil ilovalar egalladi. Ta‘lim, to‘lov tizimlari, raqamli bank xizmatlari va elektron savdo platformalari iqtisodiy faollikni oshirmoqda. Pirovardida, davlat xizmatlari fuqarolar uchun yanada shaffof va qulay shaklga kelmokda.

Masalan, tibbiyot sohasida elektron navbat olish, elektron retsept berish va boshqa qator xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Raqamlashtirish natijasida tizim faoliyati yanada shaffoflashdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga ko‘ra, keyingi 5 yilda elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizga yetkazish hamda davlat xizmatlarini “3 qadam”, “foydalanuvchi uchun moslashtirilgan”, “barchasi bir mobil ilovada” tamoyillari asosida raqamlashtirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi — “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta‘minlash, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tashkiblarni bekor qilish, davlat idoralarning zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizimni yaratish maqsad qilingan.

Elektron xizmatlar soni kun sayin ko‘payayotgani raqamlashtirish jarayonining naqadar samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Xususan, ayni paytda bank-moliya, soliq va bojxona tarmoqlari to‘liq raqamlashtirilgan. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohaslarida bu jarayon yuqori sur‘atda o‘tib bormoqda.

Raqamlashtirish bilan birga tarmoqlarda sun‘iy intellekt ham samarali qo‘llanayapti. Masalan, bank tizimi fuqarolar bilan muloqot qilish, shaxsning kredit tarixini aniqlash xizmatlarida sun‘iy intellektdan foydalanilmoqda. Kelgusida mi.gov.uz platformasida sun‘iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Qisqasi, mamlakatimiz virtual olamda tarmoqlarni raqamlashtirish hamda sun‘iy intellektni joriy etish eshkagini birdek harakatlantirib, zamonaviy, raqamlashtirilgan yangi O‘zbekistonni barpo etish sari ildam odimlamokda.

O‘zbekiston salohiyati
10 milliard dollarga
baholanmoqda

Kompyuter texnologiyalari rivojlaniishi, tarmoqlarni raqamlashtirish jarayoni jadallashuvida mamlakatimizdagi AT parklarining o‘rni katta. Prezidentimizning 2018-yili Hindistonga tashrifi chog‘ida axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishilgandi. Xususan, O‘zbekiston Hindistonning axborot texnologiyalari kompaniyalari bilan birga dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish, startaplarni jadallashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalari asosida yurtimizda axborot texnologiyalari parkini yaratishga qiziqish bildirdi.

Shunday qilib, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2019-yil 24-iyulda Toshkentda birinchi AT parki ochildi. Ushbu tuzilma o‘tgan davrda startap loyihalarini yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlarning kompyuter texnologiyalari borasidagi bilimi va ko‘nikmasini oshirish, AT sohasini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash, startaplar va AT kompaniyalari uchun qulay muhit yaratish, sohaga investitsiya jalb qilish, eksportni kengaytirish borasida qator ishlarni bajardi.

Natijada uch yil oldin 200 million dollarlik investitsiya hisobiga qariyb 4 gektar maydonda 20-25 qavatli 6 ta ofis binosi va zamonaviy kongress-xoll barpo etildi. 2025-yil 21-oktabr kuni Prezidentimiz boshchiligidagi ushbu loyihaning ikkinchi bosqichiga tamal toshi qo‘yildi. Endi AT parki hududi 1,5 barobar kengaytiriladi.

Bu yerda Saudiya Arabistonining “Data Volt” kompaniyasi bilan hamkorlikda quvvati 12 megavatt bo‘lgan 150 million dollarlik data markaz quriladi. Keyingi bosqichlarda yana 3 milliard dollar investitsiya kiritilib, quvvat 500 megavattga yetkaziladi.

Shuningdek, ushbu hududda jami 6 ta bino — Sun‘iy intellekt, Kosmos va kelajak texnologiyalari markazlari, 2 ta 20 qavatli ofis binosi, hamda servis va savdo obyektlari quriladi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, ushbu tuzilma orqali 300 mingdan ortiq yoshni axborot texnologiyalari sohasida yuqori daromadli ish bilan ta‘minlash maqsad qilingan. Qolaversa, shu yilning o‘zidayoq Toshkent shahri, Buxoro, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida 4 ta data markaz, 2 ta super kompyuter va 15 ta oliygohda sun‘iy intellekt laboratoriyasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bu tibbiyot, transport, qishloq xo‘jaligi, geologiya, bank-moliya, jamoat xavfsizligi kabi muhim sohalarda 100 dan ortiq sun‘iy intellekt loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi” tashkil etiladi. Markaz negizida robototexnika, internet buyumlari, “aqlli” fabrika kabi “Industriya 4.0” yechimlarini sanoat korxonalarida joriy etish uchun tartibga solish mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi.

Xorijlik ekspertlar faqat sun‘iy intellekt yo‘nalishining o‘zida O‘zbekistonning

salohiyatini 10 milliard dollarga baholamoqda. Ushbu ko‘rsatkich, albatta, tarmoqdagi bunyodkorliklar va yangi loyihalar samarasidir.

“Bir million dasturchi”dan
“Besh million sun‘iy intellekt
yetakchisi”ga qadar

AT parklarining eng samarador loyihalaridan biri “Bir million dasturchi” loyihasisdir. 2024-yili loyiha doirasida 325 ming yosh o‘qitildi. 2025-yilda esa ushbu loyihaning mantiqiy davomi sifatida BAA bilan hamkorlikda “Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” dasturi ishga tushirildi.

Prezidentimizning o‘tgan yili yanvarda Birlashgan Arab Amirliklariga tashrifi chog‘ida turli yo‘nalishlar, xususan, sun‘iy intellekt borasida o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha qator kelishuvlarga erishildi.

BAA sohalarga sun‘iy intellektni tatbiq etishda katta tajribaga ega. Bu davlat tarmoqlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish bosqichini bosib o‘tgan. Shuningdek, mamlakatda Sun‘iy intellekt vazirligi tashkil etilgani tarmoqqa davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilayotganini anglatadi. Muhammad bin Zoid nomidagi Sun‘iy intellekt universiteti faoliyati yo‘lga qo‘yilgani esa zamonaviy sohaning fundamental ilmiy yo‘nalishi sifatida jadal taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

Shu bois, ushbu davlat bilan hamkorlik biz uchun katta tajriba maydoni vazifasini o‘taydi. Tashrif davomida BAA vakillari O‘zbekistonda tarmoqqa qaratilgan alohida e‘tiborni e‘tirof etdi. Xususan, “Bir million dasturchi” loyihasisga alohida urg‘u berilib, O‘zbekistondan 2025-yilga 30 million dollarlik AT xizmatlari eksporti qilinadi. Shuningdek, o‘zbek yoshlarini masofadan turib arab kompaniyalariga ishga taklif qilish bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi.

BAA O‘zbekistonda “Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” loyihasisga investitsiya kiritish orqali hamkorlik qilishga ishtiyoq bildirdi. Bu bo‘yicha maxsus platforma yaratilgan. U orqali maktab yoshidagi bolalardan tortib, katta yoshli insonlarga — hamma sun‘iy intellektidan samarali foydalanish bo‘yicha kerakli ma‘lumotga ega bo‘lmoqda. Bu esa kelgusida O‘zbekistonning sohadagi yetakchi mamlakatlardan biriga aylanishiga samarali hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, yurtimiz oliy ta‘lim muassasalarida sun‘iy intellekt mutaxassislarini tayyorlovchi yo‘nalishlar ochildi. Jumladan, 13 ta oliy ta‘lim muassasasida 2024/2025-o‘quv yili uchun 1050 ta kvota ajratildi. O‘quv muassasalarida sun‘iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilmokda.

Hozir zamonaviy texnologiyalarni samarali boshqara olish kadrlar qiymatini oshiradi. Bugun minglab iqtidorli yoshlar AT va sun‘iy intellekt bo‘yicha izlanish olib bormoqda. Ularning kvant, dron, robototexnika kabi yo‘nalishlardagi konstruktorlik loyihalarini amaliyotga tatbiq qilish uchun Raqamli texnologiyalar markazi tashkil etiladi. Osiyo taraqqiyot banki buni qo‘llab-quvvatlab, 200 million dollar ajratishga tayyorligini bildirdi.

Shu bois, “Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” loyihasi hamda zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash borasidagi ishlar o‘zbek yoshlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim qadamlardan biri. Bu, o‘z navbatida, yurtimizda frilanserlik bozori rivojiga katta zamin hozirlaydi.

Onlayn “gig” iqtisodiyoti

Hozir jahon mehnat bozori yuqori sur‘atda o‘zgarib bormoqda. Faoliyatning tobora ko‘p raqamli texnologiyalar, masofaviy aloqa vositalari va onlayn platformalar orqali bajarilishi jarayonni jadallatmoqda. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasidan so‘ng masofaviy va moslashuvchan ish shakllariga ehtiyoj keskin oshdi. Natijada an‘anaviy, ofisga asoslangan bandlik tizimi o‘z o‘rnini asta-sekin “gig” iqtisodiyot, ya‘ni vaqtinchalik, loyihaviy va mustaqil ishlarga asoslangan yangi modelga bo‘shatib bera boshladi.

Onlayn “gig” ishchilar raqamli platformalar orqali moslashtirilgan, boshqariladigan va haq to‘lanadigan (ishbay yoki soatbay) qisqa muddatli, vazifaga asoslangan topshiriqlarni bajarish orqali daromad topadigan shaxslardir. Ish odatda masofadan turib, bitta ish beruvchi uchun emas, balki bir vaqtning o‘zida bir nechta mijoz uchun buyurtma asosida bajarilishi mumkin. Platforma esa topshiriqlarni ro‘yxatga olish, ish samaradorligini baholash va xizmat haqini to‘lash kabi asosiy vazifalarni qamrab oladi.

Jahon banking 2023-yildagi hisobotiga ko‘ra, global miqyosda onlayn “gig” ishchilar soni 154 milliondan 435 million oralg‘ida. Bu ularning jahon mehnat bozoridaqi ulushi 4,4 foizdan 12,5 foizgacha ekanini anglatadi. Yana bir hisobotga ko‘ra, “gig” iqtisodiyot Hindistonda 2030-yilgacha 90 millionta yangi ish o‘rni ochishi va YIMning 1,25 foiz oshishiga hissa qo‘shishi mumkin. Bu iqtisodiy o‘shish va bandlikni ta‘minlashda ushbu iqtisodiyotning o‘ziga xos strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Raqamlashtirish hamda kompyuter texnologiyalari savodxonligiga qaratilgan katta e‘tibor natijasida O‘zbekiston global onlayn “gig” iqtisodiyotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda raqamli platformalarda ishlash ommalashib, aholi uchun imkoniyatlar kengaydi. 2024-yilning uchinchi choragi yakuniga oid ma‘lumotlarga ko‘ra, xorijga xizmat ko‘rsatuvchi AT kompaniyalari soni 936 taga yetdi (2023-yildagiga nisbatan 170 foiz ko‘paygan). 2024-yil uchinchi choragida hududlarning AT xizmatlari eksporti o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 barobar oshdi. 2025-yilda internet tarmog‘iga ulangan jismoniy shaxslar soni 32,7 millionga yetdi. Bu ko‘rsatkich ham onlayn ishchilar uchun qulaylik kengayib borayotganidan dalolat beradi. Umuman, soha rivoji aholi farovonligi va yoshlarning daromadini yanada oshirishga zamin yaratmoqda.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida davlat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmat ko‘rsatish sohasida AT, sun‘iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarni ko‘paytirish muhimligini ta‘kidladi. Bu esa masofaviy ishlash uchun mustahkam asos yaratayotgan omillardan biri.

Masofaviy ta‘lim “gig” iqtisodiyotning yana bir muhim qismidir. Internetdagi turli ommabop platformalarda o‘zbek tilida yaratilayotgan kontentlar soni ham ortib bormoqda. Bu orqali yurtdoshlarimiz yaxshigina daromad topayotgani ham ayni haqiqat. Birgina misol: 2024-yilda O‘zbekistonning 35 ta kompaniyasi ushbu yo‘nalishdan 118 milliard so‘m daromad oldi. Bu avvalgi yildagiga nisbatan 94 foiz ko‘p. Biz raqamli iqtisodiyotni taraqqiy ettirish yo‘lidan bormoqdamiz. Bu — siyosiy-iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim. Uning ravnaqi yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasining amalga oshishi, xalq farovonligi va davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ichki bozorni rivojlantirish va unda barqaror talabni shakllantirish iqtisodiy siyosatning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayon faqat aholi daromadlarining o‘lishi yoki moliyaviy instrumentlar ko‘payishi bilan cheklanib qolmaydi. Eng avvalo, bozorda sifat, xavfsizlik va adolatli raqobat muhitining ta‘minlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki ichki talabning barqarorligi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda aholining bozorga va davlat tomonidan belgilangan qoidalarga bo‘lgan ishonchiga ham bevosita bog‘liq.

Aynan shu jihat ichki bozorni rivojlantirish masalasiga yangicha yondashuvni talab qiladi. Agar talab jamiyat ongida shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy holat bo‘lsa, uni rag‘batlantirish ham faqat moliyaviy yoki iqtisodiy choralar bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayonda davlatning tartibga soluvchi va kafolatlovchi roli alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ishonch o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi — u aniq va barqaror qoidalar, ochiq va samarali nazorat hamda mustahkam institutlar orqali shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ichki bozorda talabni rag‘batlantirish siyosati texnik jihatdan tartibga solish tizimi bilan uzviy bog‘liq. Standartlar, texnik reglamentlar, sertifikatlashtirish va davlat nazorati bozorda adolatli raqobat muhitini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu mexanizmlar bozorni cheklash uchun emas, aksincha, uning sifatini oshirish, iste‘molchilar manfaatlarini himoya qilish va iqtisodiy o‘lishni barqaror asosga qo‘yish maqsadida joriy etiladi.

Davlatimiz rahbarining Murojaatnomasida belgilab berilgan uchinchi ustuvor yo‘nalish — ichki bozorda talabni rag‘batlantirish — aynan shu yondashuvga tayanadi. Aholi



Azamat ABDURAHMANOV,
Texnik jihatdan tartibga solish
sohasida nazorat inspeksiyasi
boshlig‘i

daromadlarining oshishi, ipoteka va iste‘mol kreditlari imkoniyatlarining kengayishi, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi ichki talabni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz bu jarayonga bir tomonlama emas, balki muvozanatli va tizimli yondashmoqda. Zero, talabning o‘lishi o‘z-o‘zidan farovonlikni kafolatlamaydi. Agar bozorda mahsulot va xizmatlar sifati, xavfsizlik talablari hamda belgilangan

standartlarga qat‘iy rioya etilmasa, iqtisodiy o‘lish inson manfaatlaridan uzilib qolishi mumkin. Shuning uchun ham ichki bozorni rivojlantirish siyosati faqat miqdoriy o‘lishni emas, balki sifatli, barqaror va aholi ishonchiga asoslangan iqtisodiy muhitni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, texnik jihatdan tartibga solish tizimi ichki talabni rag‘batlantirish siyosatining ko‘zga ko‘rinmas, ammo hal qiluvchi tayanchi hisoblanadi. Bu tizim bozorni cheklash uchun emas, uni sog‘lomlashtirish uchun xizmat qiladi. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimidagi Nazorat inspeksiyasi faoliyati bu fikrni aniq raqamlar orqali tasdiqlaydi. 2025-yilda 625 ta korxonada o‘tkazilgan davlat nazoratlari natijasida tekshirilgan 670 ta mahsulotdan 602 tasi, ya‘ni qariyb 90 foizi texnik reglament va standart talablariga nomuvofiq deb topilgan.

Bu raqamlar bir qarashda salbiy ko‘rinishi mumkin. Ammo aslida ular davlat bozordagi real holatni yashirmayotganini, muammolarni ochiq tan oylatganini va ularni tizimli hal qilishga kirishganini ko‘rsatadi. Nomuvofiqliklar orasida 11,5 milliard so‘mlik mahsulot sifati talabga javob bermagani, 32 mingdan ortiq o‘lchash vositalarining 74 foizi qiyoslanmagani, 75 tasi esa umuman yaroqsiz holda ekani aniqlangan. Bu holatlar faqat qonunbuzarlik emas, balki aholining real xarid qobiliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir qiluvchi omildir.

Chunki o‘lchovda adolat bo‘lmasa, narxda adolat bo‘lmaydi. Narx adolatsiz bo‘lgan bozorda esa talab sun‘iy tus oladi. Davlatimiz rahbari ichki talabni rag‘batlantirish masalasini inflyatsiyani jilvovlash, aholi daromadini oshirish bilan uzviy bog‘lab qo‘ygani bejiz emas. Sifatsiz mahsulot — yashirin inflyatsiya manbaidir. U insonni qayta-qayta xarajat qilishga majbur etadi, uning real daromadini yeb qo‘yadi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





talab pasayadi, talab pasaygan joyda esa iqtisodiy o‘lish sekinlashadi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan hukumat topshiriqlariga asosan aholi xavfsizligiga bevosita ta‘sir etuvchi lift, eskalator, kabel, kotyol, radiator, sement, oyna va boshqa mahsulotlar bo‘yicha rasmiylashtirilgan 2847 ta sertifikat hujjatlari to‘plami chuqur o‘rganildi. Natijada hujjatlarning katta qismiga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, 269 ta holatda aniqlangan kamchiliklar sababli hujjatlar qayta ishlash uchun qaytarildi. Bu holat sertifikatlashtirish tizimida formal yondashuvga yo‘l qo‘yilmayotgani, har bir hujjat ortida inson hayoti va xavfsizligi turgani inobatga olinayotganidan dalolat beradi.

2025-yilda 76 ta sertifikatlashtirish idorasi tomonidan rasmiylashtirilgan 870 ta muvofqlik sertifikat hujjatlari to‘plamini tahlil qilish natijasida 840 ta holatda turli kamchiliklar

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishga katta e‘tibor berilyapti. Islohotlar sabab dehqon va fermerlar ishonchi ortib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda arzigulik yutuqlarga erishyapmiz.

SAMARADORLIK SIRI

yoxud jizzaxlik fermerlar erishayotgan yutuqlar zamiridagi haqiqat

Tahlil va taqqos



Bunday yangilanishlarning amaliy ifodasini Jizzax viloyati misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, viloyatda yerga, umuman, tadbirkorlikka munosabat tubdan o‘zgardi. Natijada foydalanishda bo‘lmagan yerlar qayta o‘zlashtirilib, suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan hududlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha qiymat yaratilmoqda. Birgina misol, ilgari paxta sabab odamlar, ayniqsa, yoshlar majburiy mehnatga jalb etilardi. Yangi O‘zbekistonda majburiy mehnatga to‘la barham berildi. Sohaga zamonaviy texnologiya va ilmiy yondashuv kiritib keldi. Mavsumiy shoshma-shoshardlik o‘rmini puxta rejalashtirish va aniq hisob-kitoblar egalladi. Bu nafaqat mehnat unumdorligini, balki inson qadrini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, 2025-yilda g‘alla va pilladan ham barakali hosil yetishtirildi. Meva-sabzavotchilik, poliz ekinlari, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik kabi tarmoqlarda salmoqli natijalarga erishildi.

— Fermerlar texnika, suv, moliyaviy resurslar bilan qo‘llab-quvvatlayapti, — deydi Jizzax viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Zafar Ro‘ziyev. — Qolaversa, agrotexnik xizmatlar kuchaytirildi. Natijada hosildorlik yil sayin oshib bormoqda. Xususan, 2025-yilda viloyatimizda 750 ming tonna g‘alla, 320 ming tonna paxta, 110 ming tonna meva va rezavorlar, 515 ming tonna sabzavot, 330 ming tonna poliz mahsulotlari, 115 ming tonna kartoshka, 60 ming tonna moyli ekinlar yetishtirildi. Qolaversa, 255 ming tonna go‘sh, 730 ming tonna sut, 400 million dona tuxum va 16 ming tonna baliq mahsulotlari ishlab chiqarildi. Ayniqsa, paxtachilikda muhim burilish yili bo‘ldi. Viloyatimizda 67,6 ming gektarga g‘o‘za ekilib, 320 ming tonna paxta xomashyosi terib olindi. Uning 90 foizdan ortig‘i zamonaviy paxta terish mashinalari yordamida yig‘ib olingani mehnat unumdorligi oshganidan dalolat beradi. Buning uchun chigiti 76 xemasida plyonka ostiga ekildi. Texniklar shunga moslashtirildi va suv ta‘minotini yaxshilashga jiddiy e‘tibor berdik. Ayrim fermerlar gektariga 80-90 sentnerdan ziyod hosil olib, yuqori natijaga qo‘lga kiritdi.

Darhaqiqat, viloyat paxtachiligida sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. Jumladan,



— Prezidentimizning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga berayotgan katta e‘tibori, sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar tufayli yerga, dehqonchilikka bo‘lgan yondashuv tubdan o‘zgardi. Yerga ishlov berishdan tortib, hosilni yig‘ishtirib olishgacha bo‘lgan jarayonga zamonaviy texnologiyalar joriy etilayotgan o‘zbek dehqonining salohiyatini, Ona zamin saxiyiligini to‘liq namoyon etayotir. Xo‘jaligimizda 30 gektar yerga xorij agrotexnologiyasi asosida yangi chigit navi ekildi. G‘o‘zani parvarishlash, hosilni yig‘ishtirib olish zamonaviy texnikalarda bajarildi. Natijada 85 sentnerdan ziyod hosil oldik. Bu yarim asrdan ziyod dehqonchilik faoliyatimdagi rekord natija bo‘ldi. Quvonarlisi, 2025-yilda uzoq yillik mehnat faoliyatim yuksak baholani, Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan paxtakor” faxriy unvoni bilan taqdirlandim, — deydi Abdunabi aka.

Yerga qanday ishlov berishni bilish kerak. So‘nggi yillardagi islohotlar sabab tashlandiq bo‘lib qolgan yerlar ham o‘z egalari topmoqda. — Hozir viloyatdagi mavjud 504,4 ming gektar sug‘oriladigan va lalmi yerlarning har bir

G‘allachilik sohasida ham barqaror o‘lish ta‘minlandi. Xususan, 88,1 ming gektar sug‘oriladigan yerda 750 ming tonna boshog‘li don yetishtirildi. Ya‘ni o‘rtacha hosildorlik gektariga 85,2 sentnerni tashkil etdi. Donning katta qismi fermerlar ixtiyorida qolib, bu ularning iqtisodiy manfaatdorligi oshishiga xizmat qilmoqda. Ayrim tumanlarda gektariga 100 sentnerdan ortiq hosil olgan xo‘jaliklar ko‘payib bormoqda. Bu holat fermerlar orasida zamonaviy ilmi o‘rganib, yangi agrotexnika talablari joriy etilayotganidan dalolat. Ayniqsa, 2025-yilda jizzaxlik 100 dan ziyod fermerlar har gektar g‘alladan 90-100 sentnerdan xirmon ko‘tardi. Umuman, g‘allachilikda erishilgan yuqori natijalar fermerlarga 2 trillion so‘m‘dan ziyod daromad olib keldi.

— Bugun yurtimiz fermerlari barqaror va samarali mehnat qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda, — deydi Do‘stlik tumanidagi “Asal momo” fermer xo‘jaligi boshlig‘i Abdurashid Xudoyberdiyev. — Davlatimiz tomonidan sohani qo‘llab-quvvatlash, sifatlari urug‘lik, zamonaviy agrotexnologiyalar hamda moddiy-texnik ta‘minot yaxshilangan samara bormoqda. Bu nafaqat fermer xo‘jaliklari daromadining oshishiga, ozim-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2025-yilda fermer xo‘jaligimizda 47 gektarga g‘alla ekildi. Uning har gektaridan o‘rtacha 90 sentnerdan hosil olishga erishdik. Natijada 142 tonna qilib belgilangan shartnomaviy rejanı 120 foizga, ya‘ni 168 tonna etib, viloyatimizda birinchi bo‘lib bajardik. Erishilgan yutuqlar zamirida avvalo, davlatimiz rahbarining qishloq xo‘jaligiga qaratayotgan doimiy g‘amxo‘rligi, qolaversa, imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan mehnatkash dehqonlarimiz sa‘y-harakatlari, mutaxassislar maslahati mujassam.

Tabiatdagi ko‘plab o‘simlik va jonivorlar uchun tinim fasli bo‘lgan qishda ham dehqonchilikdagi yumushlar to‘xtamaydi. Xususan, sug‘orish tarmoqlari, inshootlarini ta‘mirlash, yaxob berib, xaxni qochirish aynan shu faslda amalga oshirilishi shart bo‘lgan ishlarning eng muhimi hisoblanadi. Har doimgidek joriy

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Suv va hayot

IRRIGATSIYA VA
suv
muammolariOLIMLAR VA ISHBILARMONLAR
HAMKORLIGIDA YECHIM TOPMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Suv xo‘jaligi va irrigatsiya sohasidagi muammolar ko‘p hollarda texnologik imkoniyatlar yetarli darajada joriy qilinmagani bilan bog‘liq. An‘anaviy sug‘orish usullari suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini bermaydi, monitoring va hisob tizimlarining sustligi esa yo‘qotishlarni aniqlash hamda tezkor choralar ko‘rishni qiyinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli boshqaruv tizimlari, suv tejovchi texnologiyalar, ilmiy modellashtrish asosida ishlab chiqilgan irrigatsiya yechimlari ekologik barqarorlikni ta‘minlashning muhim omillaridan.

Bunday sharoitda ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasi ishlab chiqarish va real sektor bilan tutashmagan holatda kutilgan samarani bermaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlik tashabbuslari ilmiy asos va puxta tahlilsiz barqaror rivojlanish yo‘liga chiqishi dargumon. Suv xo‘jaligi kabi

murakkab va ko‘p qatlamli sohada aynan olimlar va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion yechimlar shakllanishi, ilmiy ishlamlar tijoriylashuvi va investitsiya jarayonlari faollashuvi uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

O‘zbekiston sharoitida irrigatsiya tizimlari qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan. Mintaqaning tabiiy-iqlim sharoiti suv resurslaridan oqilona foydalanish, har tomchi suvning ilmiy asosda rejalashtirilishini talab etadi. Shu jihatdan suv xo‘jaligi sohasida innovatsiyalarni joriy qilish, ilmiy ishlamlarni amaliyotga tatbiq etish va biznes subyektlarini bu jarayonga faol jalb qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Ana shu ehtiyojlardan kelib chiqib, olimlar hamda suv xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning bu boradagi fikr-mulohazalari, amaliy harakatlari natijalari bilan qiziqib, ularni sizning e‘tiboringizga ham havola etishni ma‘qul ko‘rdik. Chunki suvni tejash bugun har birimizning chin insoniy va fuqarolik burchimizga aylanib ulgurdi.

SHO‘RLANISH HOLATI DALA SHAROITIDA
TEZKOR VA ANIQ BAHOLANADI

Gavharoy PALUASHOVA,
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri:

— Suv xo‘jaligi va irrigatsiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarim jarayonida bir haqiqatga tobora ko‘proq amin bo‘lyapman: bugungi ekologik vaziyat, yer va suv resurslariga tushayotgan bosim sharoitida ilmiy ishlamlarning amaliyotdan uzilgan holda rivojlanishi kutilgan natijani bermaydi. Ayniqsa, sug‘oriladigan yerlar ulushi

tuproq va suv sho‘rlanishini aniqlashga mo‘ljallangan elektr konduktometr uskunalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ulardan bugun respublikaning barcha suv xo‘jaligi hududidagi meliorativ ekspeditsiyalarda foydalanilmoqda. Elektr konduktometrlar tuproq sho‘rlanishini tezkor usulda aniqlash imkonini beradi. Bu esa dala sharoitida tezkor qaror qabul qilish, agrotexnik tadbirlarni aniq rejalashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy ishlarni ikki modifikatsiyada ishlab chiqilgan. Shitirli Ekspress-IT elektr konduktometri bevosita dalaning o‘zida o‘lchash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 1 metrgacha chuqurlikda tuproq sho‘rlanishi va haroratini aniqlaydi. Ushbu imkoniyat ekinlarning o‘sib rivojlanishi davrida ildiz tizimi joylashgan qatlamdagi sho‘rlanish darajasini baholash uchun qulay sharoit yaratadi. Amaliy tajribalar nam tuproqda ushbu usul yuqori aniqlik bilan natija berishini ko‘rsatdi. Kun davomida bir necha gektar maydonning sho‘rlanish holatini baholash imkonini mavjud.

Ikkinchi modifikatsiya sifatida ishlab chiqilgan portativ elektr konduktometr dala sharoitida olingan tuproq hamda suv namunalari o‘lchashga xizmat qiladi. Ariq va drenaj-zovurlardagi suvlarning



yuqori bo‘lgan hududlarda har bir ilmiy yechim real ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etilishi, tadbirkorlik tashabbuslari bilan uyg‘unlashishi zarur.

Respublikamiz sharoitida bu masala naqadar dolzarb ekanini holatning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Hozir sug‘oriladigan maydonlarning 44,2 foizi turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, bu holat qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligiga bevosita ta‘sir etyapti. Sho‘rlanish jarayonining o‘z vaqtida aniqlanmasligi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi, yerlarning meliorativ holatini og‘irlashtiradi, ishlab chiqarish xarajatini oshiradi. Shu sababli sho‘rlanishni dala sharoitida tezkor va aniq baholash imkonini beradigan ilmiy yechimlarga ehtiyoj kuchaygan.

Mazkur ehtiyojlardan kelib chiqib, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutida

minerallashtirishni joyida aniqlash imkoniyati suv xo‘jaligi mutaxassislari uchun muhim axborot manbaidir. Shu bilan birga, ushbu uskunadan dehqon va fermer xo‘jaliklari vakillari bevosita o‘z yer maydonida foydalanishi mumkin. Bu esa ilmiy natijalarning kengroq qatlamga yetib borishini ta‘minlaydi.

Mazkur ilmiy ishlamlarning yana bir muhim jihati shuki, kuniga 150-200 ta tuproq yoki suv namunasini tahlil qilish imkoniyati laboratoriya sharoitida klassik usullarga nisbatan mehnat unumdorligini 7-8 barobargacha oshiradi. Kimyoviy reagentlardan foydalanilmasligi ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bilan birga xarajati qisqartirishga yordam beradi. Shu sababli bunday texnologiyalarni keng joriy qilish masalasida tadbirkorlar va ishbilarmonlar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

IRRIGATSIYA TIZIMIDA INSON OMILIGA
BOG‘LIQ XATOLAR KAMAYADI

Boyybek XOLBO‘TAYEV,
Jizzax politehnika instituti dotsenti:

— Iqlim o‘zgarishi, suv sathining mavsumiy tebranishi, vegetatsiya davrida suvga talabning keskin oshishi nasos stansiyalarining uzluksiz va ishonchli ishlashini strategik masalaga aylantiradi. Tajribadan ayonki, ko‘plab nasos stansiyalarida suv sathi pasayishi bilan bog‘liq uzilishlar yuzaga keladi. Suv sathi keskin tushib ketgan paytlarda nasos agregatlari samaradorligi kamayadi, ayrim hollarda esa ularning ishi vaqtincha to‘xtab qoladi. Bu holat qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv bilan ta‘minlanishida uzilishlar keltirib chiqaradi, suv taqsimotida beqarorlik yuzaga keladi, ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli nasos stansiyalarini suv tanqis sharoitga moslashgan holda modernizatsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy vazifalar sirasiga kiradi.

Ilmiy jamoamiz tomonidan ishlab chiqilgan nasos stansiyalarida suv tanqis davrlarda iste‘molchilarni va sug‘oriladigan yerlarni uzluksiz suv bilan ta‘minlashga mo‘ljallangan maxsus qurilma hamda masofaviy boshqaruv dasturi ayni

masalaga amaliy yechim bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Loyihaning asosiy g‘oyasi irrigatsiya tizimi uchun eng muhim bo‘lgan vegetatsiya davrida suv yetkazib berish jarayonini barqaror holatda ushlab turishga qaratilgan.

Mazkur loyiha doirasida nasos stansiyasining aniq modeli ishlab chiqildi va unga mos kompyuter dasturi yaratildi. Dastur orqali nasos stansiyasining ish rejimini masofadan boshqarish, suv sathidagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish va tezkor choralar ko‘rish imkoniyati yaratildi. Suv sathi pasaygan holatlarda maxsus qurilma yordamida nasos agregatlarining uzluksiz ishlashi ta‘minlanadi. Bu esa suv ta‘minotida barqarorlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Loyihaning muhim jihatlardan biri shundaki, u faqat sug‘orish tizimlari bilan cheklanib qolmaydi. Ishlab chiqilgan masofaviy boshqaruv dasturidan ichimlik suv ta‘minoti tizimlarida ham foydalanish mumkin. Amaliy natijalar ham uning hayotiyligini tasdiqladi. Ishlab chiqilgan dastur va qurilmaga Suv xo‘jaligi vazirligining ijobiy xulosasi olindi, intellektual mulk agentligi tomonidan foydali model sifatida patent bilan himoyalandi, kompyuter dasturi uchun belgilangan tartibda guvohnoma rasmiylashtirildi.

Respublikamizdagi barcha nasos stansiyalariga ushbu dastur va qurilmani tatbiq etish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu suv xo‘jaligi tizimining umumiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayni jarayonda tadbirkorlar va ishbilarmonlar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy muassasalar tomonidan yaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqarish miqyosida joriy qilish, servisini yo‘lga qo‘yish, texnik qurilmalarni hududlar kesimida moslashtirish tadbirkorlik subyektlarining faol ishtirokini talab qiladi. O‘z navbatida, ishbilarmonlik muhiti innovatsion yechimlarning tezroq hayotga tatbiq etilishi, investitsiya jalb qilish jarayonlarining faollashuvi uchun muhim.

YOMG‘IR HISOBIGA SHO‘RXOK HUDUDLARNI
TUZSIZLANTIRISH MUMKIN

Farhod SA‘DIYEV,
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi:

— Bugungi suv tanqisligi sharoitida sho‘r yuvish jarayoniga yondashuv tubdan qayta ko‘rib chiqilishi davr talabidir. An‘anaviy sho‘r yuvish texnologiyalari katta hajmdagi suv resurslarini talab qilgani tufayli vegetatsiya davrida yoki suv yetib bormaydigan hududlarda ularni to‘liq qo‘llash imkoniyati keskin cheklangan. Natijada tuproq sho‘rlanishini boshqarish masalasi suv resurslarini tejash bilan chambarchas bog‘langan murakkab vazifaga aylanmoqda.

Ayni sharoitda meliorativ tadbirlarni kam suv sarfi asosida tashkil etish, tuproqdagi tuzlarning harakatini tezlashtirish va o‘simliklarni sho‘r stressidan himoyalashga qaratilgan ilmiy yechimlarga ehtiyoj ortdi. Shu ma‘noda, tuproq sho‘rini kamaytirishga qaratilgan biosolvent melioranti asosidagi tadqiqot natijalari bilan o‘rtqoqlashishni zarur deb bildim. Ushbu preparat Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Uni qo‘llash texnologiyasini Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti olimlari takomillashtirgan.

Biosolvent melioranti sho‘r yuvish jarayonida suv sarfini keskin kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlar jarayonida preparatni qo‘llash orqali suv sarfini 50 foizgacha tejashga erishildi. Shu bilan birga, tuproqdagi toksik tuzlarning yuvilish jarayoni 42 foizgacha tezlashgani kuzatildi. Bu natija suv tanqisligi sharoitida meliorativ tadbirlarni amalga oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lishi mumkin.

Preparatning ta‘sir mexanizmi tuproqning fizik holatini yaxshilash bilan bevosita bog‘liq. Biosolvent tuproqning g‘ovakligini oshiradi, tuzlarning pastki qatlamlarga siljishini tezlashtiradi va sho‘rlanishning yuqori qatlamlarda to‘planib qolishining oldini oladi. Mazkur jarayon sho‘r yuvish samaradorligini oshiradi, tuproq muhitini o‘simliklar uchun qulay holatga keltiradi. Ayniqsa, vegetatsiya davrida sho‘r stressini kamaytirish orqali ekinlarning o‘sish va rivojlanishida barqarorlik ta‘minlanadi.

Sirdaryo viloyatida o‘tkazilgan tadqiqotlarda vegetatsiya davrida biosolvent meliorantidan foydalanilgan maydonlarda paxtadan qo‘shimcha 7,5 sentner hosil olishga erishildi. Sho‘r yuvish davrida qo‘llangan variantlarda esa qo‘shimcha 5-6 sentner, Xorazm viloyatida o‘tkazilgan tajribalarda qishki sho‘r yuvishdan keyin vegetatsiya davrida preparat qo‘llangan dalalarda 10 sentnerdan ortiq qo‘shimcha paxta hosili olindi.

Muhimi, suv tanqisligi sababli sho‘r yuvish uchun yetarli suv ajratib bo‘lmaydigan hududlarda ham ushbu preparatdan foydalanish mumkin. Tadqiqotlarda yer shudgor qilinib, preparat tuproqning yuza qatlamiga sepilgan holatda atmosfera yog‘ini hisobiga tuzsizlantirish natijalari qayd etildi — 30-70 santimeter qatlamda tuzlar miqdori 30 foizgacha kamaygani kuzatildi.

Mazkur loyiha ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikning samarali namunasi hisoblanadi. Bioorganik kimyo instituti tomonidan ishlab chiqilgan preparat, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llash texnologiyasi va xususi sektor ishtirokidagi yetkazib berish tizimi o‘zaro uyg‘unlashgan holda ishlayotgan.

kuzatuvlari, zamonaviy o‘lchov uskunalarini hamda raqamli modellashtrish usullari kompleks tarzda qo‘llandi. Bu yondashuv real holatni aniqlash va kelajakdagi xavf zonalarini oldindan baholash imkonini berdi.

Masofadan zondlash asosida olingan natijalar dala o‘lchovlari va raqamli modellashtrish natijalari bilan o‘zaro taqqoslandi. Mazkur yondashuv monitoring natijalarining ishonchligini oshirdi va gruntni to‘g‘onlardagi filtrlash hamda deformatsiya jarayonlarini kompleks baholash imkonini yaratdi. Shu tariqa an‘anaviy o‘lchov usullari va zamonaviy raqamli texnologiyalar uyg‘unligi asosida to‘g‘on xavfsizligini baholashning samarali modeli shakllantirildi. Bu esa, o‘ylaymizki, suv xo‘jaligi tizimida xavfsizlikni ta‘minlashdagi muhim ilmiy-amaliy bosqichdir.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Asliddin ABDURAZZOQOV
tayyorladi.

MAQSADIMIZ — AVARIYA HOLATLARINING
OLDINI OLISH

talab etadigan strategik yo‘nalish. O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish, energetika barqarorligi va hududiy suv ta‘minoti tizimi bevosita suv omborlari faoliyati bilan aloqador. Shu bois, ushbu inshootlarning texnik holatini doimiy va tizimli kuzatib borish davlat miqyosidagi muhim vazifalar qatorida turadi.

Ilmiy malabalarda keltirilgan ma‘lumotlar gidrotexnik inshootlarda yuz berayotgan avariylarning salmoqli qismi — 75 foizi gruntni to‘g‘onlar hissasiga to‘g‘ri kelishini tasdiqlaydi. Buning asosiy sababi gruntni to‘g‘onlarda filtrlash va deformatsiya jarayonlarining ko‘zga ko‘rinmas tarzda sekin va bosqichma-bosqich rivojlanishidir. Ushbu jarayonlar o‘z vaqtida aniqlanmasa, to‘g‘on barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu tufayli ham gruntni to‘g‘onlar holatini monitoring qilish xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy vazifadir.

Tadqiqotimiz doirasida gruntni to‘g‘onlarda filtrlash va deformatsiya jarayonlarini monitoring qilish masalasini Tallimarjon suv ombori misolida o‘rgandik. O‘rganish obyekti sifatida aynan ushbu suv omborining tanlanishi tasodif emas. Mazkur suv ombori Amudaryodan suv olishi, yettita nasos stansiyasi orqali to‘ldirilishi va umumiy suv hajmi bir milliard kub metrdan oshishi bilan respublikamizdagi yirik va strategik ahamiyatga ega inshootlar qatoriga kiradi. Bunday obyektlarda xavfsizlik masalasiga ilmiy yondashuv asosida baho berish alohida ahamiyatga molik.

Izlanishlarimizning asosiy maqsadi suv ombori gruntni to‘g‘onida yuz beradigan filtrlash va deformatsiya jarayonlarini monitoring qilish tizimini raqamli modellashtrish asosida takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. Ushbu maqsadga erishish uchun dala va laboratoriya

Mulohaza

Zulfiya MO‘MINOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi

“Maromiylik”
targ‘ibot loyihasi

“Pul topib, aql topmaganlar-a”, der edi rahmatli momom pulni noto‘g‘ri ishlatsak. “Mashaqqatli mehnatlarning natijasini bunday isrof qilmanglar, pul topib besamar yo‘qotaversalaring, borib-borib aqlni yo‘qotasizlar”, deya qo‘shib qo‘yardi.

Nazarimda, biz shunday davrni boshdan kechiryapmiz. Kimoshdi to‘y-hashamlar, ta‘ziya marosimlaridagi isrofgarliklarni pul topib, aql topmaganlar qildi, desak hech ham xato bo‘lmaydi. Chunki bunday tadbirlar haqiqiy musobaqaga aylanib ketdi. Unda g‘oliblar bo‘lmaydi, hamma yutqazadi, ammo hech kim bu bema‘ni musobaqani to‘xtatish kerak, ortiqcha pulingiz bo‘lsa, muhtojlarga yordam bering, isrofgarliklarning ertaga javobi bor, demadi.

Binobarin, Prezidentimiz bu muammoning oldini olish zarurligini birinchi bo‘lib aytdi. Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 21-apreldagi

TO‘Y MANMANLIK, MAQTANCHOQLIK KO‘ZGUSI EMAS

“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ilovasida 2025-yilning avgust oyigacha to‘ylar, oilaviy tantanalalar, ma‘rakalar va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish bo‘yicha parlament palatalari kengashlarining qo‘shma qarori qabul qilinishi belgilab qo‘yildi.

Ayni damda to‘y-hasham, ma‘raka va marosimlardagi isrofgarliklarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlari kuchaytirilib, loyihalar ishlab chiqildi.

“Maromiylik” loyihasi shunday loyihalardan. U Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, “Nuroni” jamg‘armasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillari, ma‘naviy-ma‘rifiy sohaga mas‘ullar, olimlar, ziyolilar, xalqimiz tomonidan qo‘llab-quvvatladi.

Endi milliy an‘analarga yot, odob-axloq qoidalariga zid turli shoularni, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan to‘ylar, oilaviy tantanalardan oldingi, tadbir davomidagi va undan keyingi ortiqcha rasm-rusumlar — “kuyov navkari”, “ota ko‘rdi”, “sep yoydi”, “quda chaqirdi”, “kelin chaqirdi”, “tog‘ora yuborish” va hokazolarni o‘tkazish taqiqlanadi.

Dafn etish va motam marosimlari bilan bog‘lab, o‘ylab topilgan ortiqcha tadbirlar — “yetiti”, “payshanbalik”, “yigirma”, “qirq”, “yil oshi”, “pul tarqatish”, “mato ulashish” va hokazolarni o‘tkazishga ham yo‘l qo‘yilmaydi, tartibni buzganlar tegishli javobgarlikka tortiladi.

To‘g‘risini tan olish kerak, momom aytgandek bo‘ldi: pulni bemaqsad ishlataverib, aqlni ham yo‘qotib qo‘ydik. Bo‘g‘zigacha qarzga botish, to‘y qilaman deb qarindosh-urug‘dan begonalashish, to‘yda pul sochish, manmanlik, maqtanchoqlik aqlni yo‘qotishdan boshqa narsa emas. Ijtimoiy tarmoqlarga



yopishib olish natijasida bizni yorug‘ kunlarga boshlovchi manba — kitob o‘qimay qo‘ydik. Kitob o‘qimaslik tafakkurni toraytiradi, tafakkuri torlar esa o‘sha manmanlikka, maqtanchoqlikka beriladi.

“Obod mahalla”, “Obod qishloq” dasturlari munosabati bilan uyma-uy yurganimizda o‘zbek xonadonlarining 70 foizida kitob javoni ham, kitoblar to‘plami ham yo‘qligiga guvoh bo‘ldik. Hududlarga borsangiz, odamlar “Saodat” jurnali hali ham chiqiyaptimi?”, “Guliston” degan jurnal haliyam bormi?” deb savol beradi. Mamlakatimizda nashr etilayotgan gazeta-jurnallarning hatto nomini bilmaydigan maktab direktorlariyu mahalla raislari bor, desam ishonavering.

Aql qanday yo‘qolayotganini hammamiz bilamiz. Endi aqlni yig‘ib olish vaqti keldi. Bundan buyog‘iga sovcchi bo‘lib borayotgan xonadonimizda kitob javoni bormi-yo‘qligiga e‘tibor qarataylik.

Endi bo‘ljak kuyovga otasining davlatiga qarab emas, dunyoqarashi, o‘qishiyu uquviga qarab, baho beraylik. Nasl-nasabida ziyoli, hunarli, imon-e‘tiqodlilar borligiga qarab, rishta bog‘laylik.

Mustaqil dunyoqarashi shakllanmagan, oliy ma‘lumot olmagani yoki hali biror kasb-kori yo‘q yigitga qiz berish, hayot qiyinchiliklarini tatib ko‘rmagan, pul qayerdan kelib, qayerga ketayotganini tushunishiga hali ancha bor erka, tantiq qizni kelin qilish oqibatida oilalar buzilaveradi, “tirik yetim”lar paydo bo‘laveradi.

Pandemiya sharoitida o‘tgan 30 kishilik to‘y marosimlarini xalqimiz xayrixohlik bilan kutib olgandi. Qani edi karantindan keyin ham to‘ylarning sarf-xarajati shundayligicha qolganda, zo‘r bo‘lardi degan fikrlar bildirilgandi o‘sha paytda.

Nima uchun bildirilgan o‘sha fikrlar esdan chiqdi? Ko‘pchilik bo‘lib ma‘qullasak, xalq mushtarak maqsadda bir yoqadan bosh

chiqarsa, albatta, risoladagidek ixcham to‘ylar bo‘ladi. Bir kunlik dabdbaga ketadigan mablag‘ni yoshlarning oliy ta‘lim olishi uchun kontrakt puli, alohida uy-joy qilishi, kompyuter jamlmalarini olishi, til o‘rganishi, sport bilan shug‘ullanishiga sarflasak yaxshi emasmi? Albatta, yaxshi. Buni tezroq qilishimiz lozim.

Sepga buncha ko‘rpa-to‘shak nega kerak?

To‘rt qator qilib, xilma-xil duxobadan, atlasu adrasdan ko‘rpa, ko‘rpacha va yostiqlar qilish hamon urfda. Aslida, hozir bular nima uchun kerak? Uymizda kelinimiz va o‘zimiz qo‘shib qilgan 20 dan ortiq ko‘rpa-to‘shak va shuncha yostiqliq joy egallab yotibdi. Qishki zaxini yo‘qotish uchun 6-yildan buyon har yozda o‘ftobga yoyamiz va qaytib kiritib qo‘yamiz. Nima qilaylik: birovga berib bo‘lmasa, tashlab yuborishga ko‘zing qiymasa.

Aksariyat kelin-kuyovlar bu ko‘rpa-to‘shakdan foydalanmaydi. Chunki ularning o‘ziga mos zamonaviy, ixcham jomadonli ko‘rpa-to‘shaklari va yostiqlari bor. Bu paxtali to‘shaklar og‘ir bo‘lgani uchun ularni keksalar ham yopinmaydi. Shunday ekan, ular nega kelinning sepgi taxlanadi?

Qadimda uzoqdan kelganlar to‘y bo‘lgan xonadonda bir necha kunlab qolib ketgan va mana shu ko‘rpa-to‘shakdan foydalangan. U paytlarda yo‘llar olisligi, transport muammosi odamlarning bir-birini kida tunab qolishiga sabab bo‘lgan. Hozir ko‘pchilikning shaxsiy transporti bor. Aytilgan vaqtda to‘ydan chiqib, uyiga yetib olish imkonini bisyor. Hatto aka-uka, opa-singillarning ham bir-birini kida yotib qolishga ko‘p hollarda vaqti yo‘q. Shunday ekan, son-sanoqsiz ko‘rpa-to‘shak, yillab joy egallab turadigan chinni va billur idishlar nima uchun kerak?

Sarpodagi ortiqcha kiyim-kechaklar, bir yil o‘tmay urfdan chiqib ketadigan poyabzallar

uchun ham pulni aql bilan ishlatadigan vaqt keldi. Qudalarga sotib olinadigan to‘nlar o‘sha kuni yelkaga tashlanadi, xolos. U zarbof to‘nlarini, mayda qavilgan choponlarni kiyib ko‘chaga chiqib bo‘lmasa. Qancha pulga olinadigan to‘nlar yillar davomida joy egallab turaveradi, turaveradi. U to‘ydan bu to‘yga, u yubileydan bu yubileysa o‘taveradi, o‘taveradi. Mana bizning ahvolumiz.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda otadonalarning farzandi boshlang‘ich ta‘limiga, oliy ta‘limiga sarflaydigan mablag‘ini biz tasavvur ham qila olmaymiz. Uyini sotib, qizini yaxshi maktabda o‘qigan va yillar davomida riksha degan aravada yashagan hindni aqli zaifga chiqarishimiz mumkin. Bir iste‘dodli bolasi oliy ma‘lumotli bo‘lishi, turli laboratoriyalarda tajriba o‘tkazishi, qo‘shimcha o‘quv dasturlari sotib olishi uchun oilada 8 kishi mehnat qilib, qobiliyatini yuzaga chiqarishiga hissa qo‘shgan yapon oilasini tushunishimiz nahotki, shunchalar qiyin.

Aksariyatimiz ibratxona bo‘lgan teatrga borishi uchun bolamizga 50 ming so‘m bermaymiz ba‘zida. Yil davomida uyimizga kirib keladigan xazina — gazeta-jurnallarning bir yillik obunasiga ketadigan pulni yangi ochilgan kafe yoki restoranga borib bir kunda sarflaymiz, ijtimoiy tarmoqqa jo‘layab, mana men mundoq joyda bundoq ovqat yeyapman, deya ko‘z-ko‘z qilamiz. Maqsadingiz pulingiz ko‘pligini namoyish etish-da, shundaymi? Kechirasiz, bolaning o‘qishi uchun kontrakt pulini topolmayotgan aka, davolanishiga mablag‘ izlayotgan singil, go‘dak bolalarini vitaminli oziq-ovqat bilan ta‘minlay olmayotgan qarindosh, kommunal to‘lovlarni to‘lashga qiyinalayotgan qo‘ni-qo‘shni yo‘qmi sizda? Yo‘q bo‘lsa, atrofga qarang, unutmangki, maoshdan maoshga yetishini o‘ylaydigan, pensiya pulining bir qismini dori-darmonga tejab ishlatadigan nuroniylari bor jamiyatda yashayapsiz.

Yurtimizda halol mehnat bilan pul topib, uni maqsadli ishlatayotgan oilalar yildan yilga ko‘payib bormoqda. Ular yeyayotgan ovqati, uyi, yotoqxonasi, oshxonasi bilan maqtanayotganlarni hech qachon tushunmaydi, o‘zlari ham maqtanmaydi.

Farzandlari bilan yangi-yangi loyihalar ustida ishlaydi, nabiralari bilan shaxmat o‘ynaydi, sport musobaqalariga boradi, qizlari bilan kechalari uyqudan kechib, ilmiy ishlar yozadi. Ular oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun mashaqqat chekishdan qo‘rqmaydi. Ular uchta ish o‘rmini uch yuztaga, uch mingtaga yetkazish haqida o‘ylaydi. Ular kibr havu korrupsiyaning ildizi ekanini biladi, manmanlardan uzoq yuradi.

Zero, ortga qaytmas islohotlarning, taraqqiyotning talabi ham shu. Har bir qadamimizni aql bilan tashlash, har bir so‘mimizni hisob-kitobli sarflashni o‘rganmas ekanmiz, kosamiz oqarmaydi, boshqalarga havas qilib yuraveramiz.

Munosabat

Yaqinda O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh
Qo‘mondoni Shavkat
Mirziyoyev raisligida
bo‘lib o‘tgan Xavfsizlik
kengashining kengaytirilgan
yig‘ilishi mamlakatimiz
harbiy xavfsizligi va
mudofaa salohiyatini
yanada mustahkamlashga
qaratilgan izchil davlat
siyosatida muhim bosqich
bo‘ldi.

Yig‘ilishda ilgari surilgan ustuvor vazifalar, mintaqaviy va global vaziyatning tez o‘zgaruvchan xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilab olingan strategik yo‘nalishlar davlat xavfsizligi masalasiga faqat bugungi kun navtiy nazaridan emas, balki kelgusidagi ehtimoliy tahdidlarni oldindan anglangan holda yondashilayotganini ko‘rsatdi. Bu esa mamlakatning ertasiga ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Bugun dunyo keskin geosiyosiy ziddiyatlar maydoniga aylanib bormoqda. Qurolli to‘qnashuvlar, iqtisodiy sanksiyalar, axborot urushi, mafkuraviy bosim va kibertahdidlar davlatlar xavfsizligida yangi mazmun kasb etmoqda. Endi xavf faqat harbiy chegaralarda emas—u onglar maydonida, axborot makonida, raqamli muhitda namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz yig‘ilishda zamonaviy urush tabiati tubdan o‘zgarganini ta‘kidlab, bugun g‘alaba qurol-yarog‘ miqdori bilan

Mahfuza YULDASHEVA,
siyosiy fanlar doktori

emas, texnologiya, boshqaruv samaradorligi, inson kapitali va intellektual ustunlik bilan belgilanishini alohida qayd etdi. Bu fikrlar mudofaa sohasida tizimli va proaktiv yondashuvga o‘tish zarurligini yana bir bor tasdiqladi.

Shu o‘rinda milliy xavfsizlik masalasiga kengroq nuqtayi nazardan qarash zarur. Chunki xavfsizlik faqat harbiy qudrat emas, balki jamiyatning ichki barqarorligi, fuqarolarning davlatga ishonchi, umumiy qadriyatlar atrofida birlashish qobiliyatidir. Ana shu ma‘naviy barqarorlikning markazida vatanparvarlik tushunchasi turadi.

Vatanparvarlik yuksak shior yoki bir kunlik da‘vat emas. U inson ongida, jamiyat ma‘naviyatida shakllanadigan uzluksiz jarayon. Yurtini sevgan inson tinchlikni qadrlaydi, islohotlarga befarq bo‘lmaydi, jamiyat taqdiriga daxldorlik hissini chuqur anglaydi. Bunday fuqarolik pozitsiyasi esa har qanday tashqi va ichki tahdidlarga qarshi eng kuchli ma‘naviy qalqondir.

VATANPARVARLIK – ENG KUCHLI MA’NAViy QALQON

Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda bir haqiqat yanada ravshan ko‘rinadi: tinchlik tasodif emas, u ongli tanlov, aqli siyosat va ma‘naviy barkamollik samarasi. Tinch diyorda yashash ham shunchaki holat emas, balki asrab-avaylashni, anglashni va qadrlashni talab qiladigan ne‘mat.

Hozir axborot makonida kuzatilayotgan turli provokatsiyalar, yolg‘on narrativlar, jamiyatni bo‘lishga qaratilgan mafkuraviy ta‘sirilar ham milliy xavfsizlik uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning intellektual immunitetini mustahkamlash, tanqidiy fikrlash



madaniyatini oshirish, ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash ustuvor vazifaga aylanadi.

Prezidentimiz nutqida harbiy ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, harbiy-ilmiy bazani rivojlantirish, kiber va muhandis-texnik mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Zamonaviy armiya faqat zamonaviy texnika emas, balki bilimli, ma‘naviy barkamol, vatan taqdiriga daxldorlik hissi kuchli bo‘lgan insonlar jamoasidir.

Shuningdek, yosh avlod tarbiyasi masalasi milliy xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq ekanini



ham alohida ta‘kidlandi. Yoshlar tinchlik qanday mashaqqat bilan qo‘lga kiritilganini, barqarorlikning qadriini anglab yetishi, vatanparvarlikni hayotiy qadriyat sifatida qabul qilishi lozim. Bu esa ta‘lim-tarbiya va ma‘naviy ishlar tizimli olib borilgandagina samara beradi.

Mamlakat xavfsizligi faqat harbiy sohadagi chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmaydi. U jamiyat ma‘naviyati, fuqarolar ongi, o‘zaro ishonch va birdamlik muhiti bilan uzviy bog‘liq. Tinch diyorda yashayotganimiz uchun shukronalik hissi, o‘zaro murosasozlik va bag‘rikenglik ruhini asrash milliy barqarorlikning eng muhim shartlaridan.

Vatanparvarlik ana shu barqarorlikni ta‘minlaydigan ma‘naviy poydevor sifatida yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ishonchli kafolati bo‘lib qolmoqda. Shu poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa, yurtimiz kelajagi ham shunchalik osoyishta, barqaror va farovon bo‘ladi. Geosiyosiy keskinlik kuchayib borayotgan bir paytda O‘zbekiston xalqaro maydonda

zo‘ravonlikka emas, muloqotga, kuch siyosatiga emas, huquq va hamkorlikka tayanayotgan davlat sifatida maydonga chiqmoqda. Bu yondashuv xalqaro huquq, tinchlik, tolerantlik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan.

Axborot urushi davrida aynan ma‘naviyat, milliy birlik va yoshlarning ongli pozitsiyasi davlat xavfsizligining eng muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois, yosh avlodni vatanga muhabbat, tinchlikka sadoqat va mas‘uliyat ruhida tarbiyalash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida belgilangan vazifalar O‘zbekiston milliy xavfsizlik siyosatida kompleks yondashuv shakllanayotganini ko‘rsatdi. Bu yondashuv harbiy qudrat, ma‘naviy barqarorlik, intellektual salohiyat va tinchlik diplomatiyasini yagona tizim sifatida qarashga asoslanadi. Ana shu uyg‘unlik himoya qilish, jamiyatda ishonch va barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.